

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.H.Axmedova	
Ingliz nasrida viktoriyan davri ahamiyati	210
M.Abdullayeva	
Shoir Hayratiy “Sayohatnoma”sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi.....	213

TILSHUNOSLIK

Sh.A.Aliyeva	
Matn maqomidagi grafema va semantik derivatsiya	216
M.S.Ishanjanova	
Lingvokultural kodlarning mazmuniy tizimi	220
D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova	
Professor A.Mamajonovning o‘zbek xalq maqollaridan foydalanish mahorati.....	224
R.A.Achilova	
Ingliz tilidagi allyuziyalarning lingvokulturologik tadqiqi	228
M.A.Mo‘minova	
“Til portfelli” integrativ texnologiyasi (ingliz tili misolida)	231
N.N.Radjabov	
Ingliz va o‘zbek tillarida undoshlarning fonetik va grafemik xususiyatlarida izomorfizm va allomorfizm.....	235
M.X.Hakimov	
Nutqiy akt va intonatsiya	242
G.A.Musayeva	
Oziq-ovqat texnologiyasi darslarida Wiki texnologiyasi asosida yozma nutqni o‘qitish	246
U.B.Usmonova	
Tilshunoslikda publitsistik matn tadqiqiga yangicha qarash.....	251
Z.S.Tashtemirova, N.M.Izbayeva	
Ko‘p tillilik tushunchasi haqida.....	254
F.Sh.Alimov, R.A.Faxrutdinova	
Raqamlashtirish sharoitida yozma nutqni shakllantirishning lingvistik omillari	259
A.L.Melikuziev	
Nolisoniy semiotik sistema va uning elementlari	265

FANIMIZ FIDOYLARI

АКАДЕМИК МАХМУД САЛАХИТДИНОВИЧ САЛАХИТДИНОВ	269
----------------------------------------------------------	-----

INGLIZ NASRIDA VIKTORIYAN DAVRI AHAMIYATI

THE SIGNIFICANCE OF VICTORIAN PERIOD IN ENGLISH PROSE

ЗНАЧЕНИЕ ВИКТОРИАНСКОГО ПЕРИОДА В АНГЛИЙСКОЙ ПРОЗЕ

¹Axmedova Gavharoy Hasanboy qizi¹Farg'ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrasida tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Viktoriyani davri tarixda dunyoda birinchi marta temiryo'llar, poyezd, paroxodlarning kashf etilishi, po'lat, ko'mir, temir qazib chiqarish va sanoatda ishlatishni yo'lga qo'yish, yangi bozorlarning paydo bo'lishi, ilm-fanning rivojlanishi, Britaniya imperiyasi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan payt sifatida yoritilishidan tashqari, ingliz adabiyotining ham realizm kirib kelishi orqali porlagan asri deya e'tirof etiladigan muhim davrdir.

Bu maqolada esa aynan, Viktoriyani adabiyoti xususiyatlari, yozuvchilari, mana shu davr uchun asosiy adabiy janr hisoblangan roman mavzulari haqida so'z yuritildi. Viktoriyani davri adabiy realizmining yuzaga kelishi uchun sabab bo'lgan bir qancha ijtimoiy o'zgarishlar va omillar tadqiq etildi. Sanoat inqilobi va to'ntarishlarining ingliz adabiyotiga ta'siri yoritildi.

Аннотация

Викторианская эпоха ознаменовалась открытием железных дорог, поездов, пароходов впервые в мире, внедрением добычи и промышленного использования стали, угля, железа, появлением новых рынков, развитием науки. Поскольку время, когда Британская империя достигла своего расцвета, это также важный период, признанный эпохой английской литературы, прославившейся введением реализма.

В данной статье говорится об особенностях викторианской литературы, ее писателях, а также о темах романа, который считается основным литературным жанром этого периода. Исследован ряд социальных изменений и факторов, обусловивших возникновение литературного реализма викторианской эпохи. Было освещено влияние промышленной революции и переворотов на английскую литературу.

Abstract

The Victorian era was marked by the discovering of railways, trains, steamships for the first time in the world, the introduction of mining and industrial use of steel, coal, iron, the emergence of new markets, the development of science. What is more, it is the important period for the English literature with the introduction of realism.

This article deals with the features of Victorian literature, its writers, novel which is considered the main literary genre of this period, as well as its themes. A number of social changes and factors that led to the emergence of literary realism of the Victorian era have been studied. The impact of the industrial revolution and upheavals on English literature was highlighted.

Kalit so'zlar: roman, realizm, sanoat inqilobi, Viktoriyani davri, tasvir, uslub, idealizatsiya, romantizm, mafkura.

Ключевые слова: роман, реализм, промышленная революция, викторианская эпоха, образ, стиль, идеализация, романтизм, идеология.

Key words: novel, realism, industrial revolution, Victorian era, image, style, idealization, romanticism, ideology.

KIRISH

XIX asr Viktoriyani davri nafaqat ilm-fanning rivojlanishi, balki sanoatlashtirishning boshlanishi, reformatsiyalashtirishning yuzaga kelishi, ijtimoiy hayotning o'zgarishi, turli aholi qatlamlarining turmush tarzi ijobiylashtirishiga sababchi bo'la olgan davr sifatida ham tarixda o'z o'rnini va ahamiyatiga egadir. Shu jumladan, ingliz adabiyoti o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan davr sifatida ham, aynan qirolicha Viktoriya hukmronligiga to'g'ri keladigan, romantik va modern adabiyot davrlarini bog'lab turishda bevosita ko'priki vazifasini XIX asr adabiyoti e'tirof etiladi. Tarix guvoh bo'lgan juda ko'plab insoniyat taraqqiyotini yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qilgan omillar-insoniyat intellektining yaqqol yuzaga chiqishi, madaniyat, siyosat, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar aynan mana shu Viktoriyani davriga borib taqaladi.

Viktoriyani davri insoniyat uchun farovon turmush tarzi va rivojlanishlarga poydevor vazifasini o'tagan deya e'tirof etilsa-da, haqiqatda esa hech biriga osonlik bilan erishilmaganligini, har yutuq ortida juda katta mashaqqat, qiyinchilik, nohaqlik va adolatsizliklar bo'lganligini, beayb to'kilgan ko'z yoshlar, begunoh qismatlar taqdiri haqida esa avlodlarga to'g'ridan to'g'ri yetkazib bera oladigan birdan bir ishonchli manba faqatgina ana shu davrda qalam tebratgan ijodkorlar va ularning adabiy meroslaridir. Shu jihatdan ham, Viktoriyani davri adiblari asarlarini o'rganish orqali kitobxonlar asl tarixiy haqiqatlardan boxabar bo'lish imkoniyatiga ega bo'lalilar. O'z jamiyatining

ADABIYOTSHUNOSLIK

go'zal sahnasi ortidagi muammolari, chirkinliklar-u qabihliklarini ro'yi rost ko'rsatishga harakat qilgan Viktoriyan davrining bir qancha fidoyi yozuvchilari borki, ularning adabiyot taraqqiyoti uchun qo'shgan hissalarini benihoya yuksakdir. Charlz Dikens, Metyu Arnold, opa-singil Brontelar, Tomas Xardi, Robert Brauning, Jozef Konrad, Uilyam Tekerey, Benjamin Disraeli, Tomas Karlayl, Oskar Uayld va Jorj Eliot kabi yozuvchilarni yagona maqsad doim birlashtirib turgan, ya'ni e'tiroz va tanqidlarga qaramasdan jamiyat ongini oshirish uchun ijtimoiy muammolarni yuzaga olib chiqish bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Aynan, viktorian adabiyoti realistik tasvir uslubiga tayanganligi sabab, 19-asr Angliya hayot tarzi va tarixiy dalillari uchun asosiy manba hisoblanadi. Chunki, Viktoriyan yozuvchilari bu davrni tasvirlashda nafaqat ilm-fanning rivojlanib, gullab yashnashi haqida bong urdilar, balki faqatgina ingliz jamiyatigagina ma'lum va oshkor bo'lgan sanoatlashtirishdagi qabihliklar-u, qishloq va shahar hayoti tafovutlari, ayol va bolalarning kechirgan mashaqqatlarini, azob-u uqubatlarini ham ro'yi rost o'z asarlarida kitobxonlarga yetkazib bera olishdi ham. Bu ijod yo'lida dastlab erkak yozuvchilar jasorat ko'rsatgan bo'lsalar, keyinchalik ayol yozuvchilar ham o'zlarining katta hissalarini qo'sha olishdi.

Viktorian davri adabiyotining yana bir kuchli jihati shundaki, dastlab sodda, kichik ijtimoiy tuzum muammolari o'rtaga tashlangan bo'lsa, keyinroq esa hatto hokimiyat bilan bog'liq siyosiy fikrlar, qarashlar, sinflar o'rtasidagi ziddiyatlar, tabaqalashtirish muammolari, ayollar huquqlarining kamsitilishiga doir holatlar yozuvchilar tomonidan qattiq tanqid qilingan. Yuqori sinf amaldorlarini olqishlash, ularga maqtovlar yog'dirishni emas, oddiy xalqning ichki tuyg'ularini tushunishga, real hayotni ochiq ko'z bilan ko'rishga, nafaqat ko'rish balki his qilishga chaqirganligi yozuvchilarning juda katta fidoyiligi deb baholanadi.

Shunday qilib, realizm - bu Viktoriya adabiyotida hayotni romantik mavzularni idealizatsiya qilmasdan tasvirlashga harakat qiladigan hikoya usuli. Shuningdek, adabiy yutuqda ko'rib chiqilgan ba'zi mavzularda sanoat inqilobi va uning Viktoriya jamiyatiga ta'siri katta bo'lib, ko'plab yozuvchilarning asosiy ilhom manbai vazifasini bajardi. Bu tarixda burilish nuqtasi bo'ldi va ularning asarlari bu davr bilan chambarchas bog'landi. Bundan tashqari, sanoat rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy o'zgarishlar adabiy realizm rivoji uchun muhim omil hisoblandi. Ya'ni bir so'z bilan aytganda, endi yozuvchilar yozishi mumkin va zarur bo'lgan yetarlicha mavzular, muammolar mavjud edi va ilgarigidek ilohlar, ma'budlar, yoki to'qima obrazlar, sevgi afsonalari haqida bong urgandan ko'ra ko'z o'ngilarida sodir bo'layotgan real voqealar tasviri haqida qalam tebratish imkoniyati, hatto majburiyati turardi. Jamiyatda shunday keskin inqiloblar, burilishlar sodir bo'layotgan bir pallada e'tiborni xayoliy hodisalar-u, to'qimalar tasviriga vaqt sarflashdan ma'no yo'qligini ana shu davr yozuvchilari juda yaxshi anglab yetgandilar. Masalan, hali ota-onasi mehriqiga to'ymay, bolalik zavqi nimaligini yaxshi his qilmay turib juda yomon sharoitlarda faqat ochdan o'lmaslik uchungina arziyas maosh evaziga ishlashga majbur bo'lgan begunoh go'daklarning ayanchli qismati, sanoatlashtirish nomi ostida ezilgan, to'qimachilik fabrikalari va do'konlarda 18-20 soatlab ishlab, farzandlari erkaliklarini his qila olmayotgan onalar taqdiri, otalarning yashirin g'am-anduhlari Viktoriyan davri yozuvchilarini shunchaki ko'z yumib keta olishlariga yo'l qo'ymas edi. Aynan shu sababdan ham, bu mavzular juda ko'plab buyuk asarlar sahnasi, syujeti paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Garchi sanoat inqilobi birinchi navbatda iqtisodiyot va boshqa sohalarga ta'sir qilgan bo'lsa-da, aslida oddiy xalqning, ana shu davrda yuzaga kelgan quyi tabaqa vakillarining turmush tarzini yengillashtirishga bir karra ham ta'sir qilgan emasdi, aksincha uzilay deb turgan "tor" ning yanada siyraklashishiga sababchi bo'lgandi xolos.

Balki shu sababdan ham, romantik davrning asosiy adabiy janri hisoblangan, muhabbat, sevgi, do'stlik tuyg'ularini ifodalashga, qalbga joylashga xizmat qilgan ohangdor- she'riyat viktorian davri adiblari uchun qaysidir ma'noda yetarlicha xizmat qila olmay qoldi. Bu davr shunchalik katta o'zgarishlarni, inqiloblarni yuzaga keltirayotgandiki, bu hech bir tirik jonni o'z ta'siridan bee'tibor qoldirmayotgani endi kattaroq, yirikroq janr-romanni talab etayotgandek edi go'yo.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XIX asr ingliz romani uchun buyuk asr bo'ldi, uni Genri Jeyms "o'ta murakkab estetik va psixologik dizayn, rasmiy va axloqiy keskinliklarning nozik muvozanati" deb ta'riflaydi. [8,1]

“Roman” atamasi XVIII asrning oxirida paydo bo‘lib, tez fursatda zamonaviy hayotni to‘laligicha tasvirlash uchun ideal adabiy shaklga aylandi, chunki o‘rta sinfning mavqei oshishi bilan savodxonlik ortishi ham roman janrining gullab yashnashiga sabab bo‘ldi. Britaniya ko‘rgan sanoat inqilobi va uning ta‘siri romanda aks ettirilgan hayotni, uning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini tasvirlash vositasiga aylandi.

Misol uchun, ingliz nasrida o‘zining buyuk asarlari bilan iz qoldirgan viktoriyani yozuvchilaridan biri Charlz Dikkins ijodi aynan roman janrida yaratilgan XIX asr durdonalaridan hisoblanadi. Uning konchilar hayotiga bag‘ishlangan “Qiyin kunlar” romani ingliz sanoatlashtirishining ana shu davri uchun asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan temir ishlab chiqarish uchun konlarda hayotini sovuq toshlar ortida o‘tkazgan kambag‘allar, muhojirlar qashshoqligi, yomon ish sharoitlari, ishchilar sinfi hayotining real tasviri keltirilgan noyob asarlardan biri bo‘lsa, yana Charlz Dikkinsning bir qancha romanlari mavjud bo‘lib, ularda yozuvchi Viktoriya mafkurasi ta‘siridagi jamiyatdagi ayollar rolini, ekspluatatsiya, zulmga chidashga majbur bo‘lgan ayollar va ularning sanoatlashgan jamiyatda omon qolish uchun intilishlarini tasvirlagan.

Yana bir Viktoriya davrining yirik namoyondalaridan biri Sharlotta Bronte ham o‘zining eng yaxshi romani “Jeyn Eyr”da Viktoriya davridagi Angliyadagi ayollarni tasvirlash bilan birga, o‘n to‘qqizinchi asrning ijtimoiy tuzilishini qattiq tanqid qiladi. Asar 1847-yilda nashr etilganida adabiy dunyoni qattiq hayajonga solgan edi. Chunki asarning ma‘lum qismi Kurrer Bellning avtobiografiyasi bo‘lib, U asosan Viktoriya davrining ayollarga nisbatan munosabatini real tarzda ochib berdi. U ayollarning patriarxal jamiyatdagi taraqqiyotidan tortib, Viktoriya davrining oddiy ayolini ham, hatto ana shu davr uchun ideal ko‘ringan tarixiy, ijtimoiy, adabiy fonini o‘zida aks ettira oluvchi Viktoriya davri ayol yozuvchilari mavqeini ham kuzatib, o‘zining asarida keng fikrlarini bayon qilgan.

XULOSA

Viktoriya davri adabiyoti juda katta va keng ko‘lamli mavzular va adiblarga egaki, u shunchaki bir tahlil bilan nihoyalanishi aslo mumkin emas. U o‘zida turli jabhalarga aloqador: ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, adabiy g‘oyalarni mujassam etganki, bu davrni tadqiq etish orqali muhokama etilishi zarur bo‘lgan yana ancha jihatlari bor ekanligiga guvoh bo‘ladi inson.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Carter, R.McRae, J. (1997). *The Routledge History of Literature in English .Britain and Ireland*. London.
2. Carter, R.McRae, J. (2001). *The Penguin Guide to Literature in English .Britain and Ireland*. London .Penguin Book.
3. Cuddon, J, A. (1998). *The Penguin Dictionary of Literary Terms and Literary theory. Fourth edition*. Penguin book. London. England.
4. Culler. (1997). *Literary Theory .Avery short Introduction*. United States. New York.
5. Fletcher, R, H. (2002). *History of English Literature*.<http://www.blackmask.com>.
6. Gaskell, E. (2005). *The Life of Charlotte Bronte* .Barnes and Noble Classics.NewYork.
7. Ghazali, B (2009). *English Literature* .assembly article from wikipedia free Encyclopedia.
8. <http://www.wwnorton.com/college/english/nael/victorian/>.
9. Leech, G.Short, M. (1981). *Style in Fiction. A Linguistic Introduction to English Fictional Prose*. Longman Group. United States. NewYork.
10. McDowell, D (1989). *An illustrated History of Britain*. England: Longman Group UK.
11. Mitchell, S. (2009). *Daily life of Victorian England .Second Edition*. Great Britain.